

2024-yil davomida Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va uning tizimida Davlat tilini rivojlantirish sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida

Ma’lumotnoma

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan o‘zbek tilini davlat tili sifatidagi talablarini bajarish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Vazirlik va uning tizimidagi korxonalarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 61-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash bo‘yicha tizimli ravishda ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, kon-geologiya sohasida o‘zbek tilini rivojlantirish, nufuzini oshirish yuzasidan vazirlikda hujjatlar yuritish va ish yuritish tizimi davlat tilida joriy etilgan. Vazirlik rahbariyati tomonidan ish yuritishda o‘zbek tilidan foydalanishga oid ichki me’yorlar belgilangan bo‘lib, bu davlat tilida hujjat aylanishiga yagona yondashuvni yaratishga xizmat qilmoqda. Barcha rasmiy hujjatlar, yo‘riqnomalar, buyruqlar va hisobotlar amaldagi davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga javob beradigan davlat tilida tuzilmoqda.

O‘zbek tilini bilish darajasini oshirish maqsadida soha xodimlari Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida tashkil etilayotgan o‘zbek tilidan foydalanish talablariga rioya etish borasida yozma va og‘zaki muloqot asoslarini o‘rgatish o‘quv kurslarida, notiqlik san’ati va nutq madaniyati mavzusidagi treninglarda qatnashib kelmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida "Tog‘-kon va geologiya sohasi xodimlari malakasini oshirish instituti" DM tomonidan tashkillashtirilgan “Davlat xizmatchilarining nutq madaniyati va notiqlik mahoratini oshirish” kurslarida vazirlik hodimlaridan 96 kishi qatnashdilar va maxsus guvohnomalarga ega bo‘ldilar.

O‘quv kursida respublikaning taniqli notiqdari, jurnalistlari vazirlik xodimlariga notiqlik san’ati va nutq madaniyatidan dars berdilar.

Vazirlik tizimidagi “O‘zmetkombinat” AJ da kombinat rahbariyati tashabbusi bilan “O‘zbek adabiy tili me‘yorlari va davlat tilida ish yuritish” malaka oshirish kursi mashg‘ulotlari bo‘lib o‘tdi. Kombinats tizimining turli bo‘g‘inlari rahbar-xodimlaridan 20 nafari ishtirok etgan ushbu kurs Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi tomonidan tashkil etildi. https://t.me/umk_matbuot_xizmati/23238

Shuningdek, “O‘zmetkombinat” AJ xodimlar malakasini baholash, o‘qitish va rivojlantirish boshqarmasida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi hamda Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining hududiy bo‘limi bilan hamkorlikda kombinat rahbar kadrlar o‘rtasida davlat tilini keng targ‘ib qilish hamda imlo savodxonligini oshirish maqsadida "Konstitutsiya - bosh qomusimiz" mavzusida diktant yozildi.

Diktant matnida asosiy qonunimiz mazmun-mohiyati, uning davlat va jamiyat hayotida tutgan ahamiyati ifodalandi. https://t.me/umk_matbuot_xizmati/23347

Vazirlik tizimida aholi orasida geologik bilimlarni ommalashtirish maqsadida geologiya sohasida o‘zbek ilmiy terminologiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘zbek tilida yozilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar va axborotnomalarni chop etish yo‘lga qo‘yilgan. Aholiga geologik tadqiqotlarning ahamiyati va tabiiy resurslarni muhofaza qilish to‘g‘risida ma‘lumot berish maqsadida o‘zbek tilida axborot tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Vazirlik va uning tizimidagi korxonalar rasmiy sayti, elektron pochta manzillari nomlari hamda dasturiy ta‘minot vositalari davlat tilida bo‘lishi ta‘minlangan.

Respublikamiz bo‘ylab o‘quvchi va talabala yoshlarni kitob mutolaasiga jalb etish, badiiy savodxonlik darajasini oshirish orqali ularni vatanparvarlik va yurtimiz kelajagiga daxldorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan “Ma‘rifat ulashib” loyihasi amalga oshirildi.

Vazirlik va uning tizimidagi korxonalarda ham “Ma‘rifat ulashib” loyihasi yo‘lga qo‘yilgan. Vazirlik tizimidagi Geologiya fanlari universitetida “Ma‘rifat ulashib” loyihasi doirasida el ardog‘idagi shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar davom ettirildi. Loyihaning bu galgi mehmon-ijodkorlari:

To‘lqin Eshbek – Ma‘naviyat fidoyisi, jurnalist, shoir, “Oltin qalam” milliy mukofoti sohibi;

Rahmon Qo‘chqor – “Xalq ta‘limi a‘lochisi”, ssenariyachi, “Yilning eng faol ma‘naviyat targ‘ibotchisi” ko‘rik-tanlovining g‘olibi;

Suvon Meli – Olim, munaqqid, nazariyotchi, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zosi;

Umida Abduazimova – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “Shuhrat” medali sohibasi bo‘ldilar

Uchrashuv davomida ijodkorlarning ijod va ilm yo‘llari haqida batafsil ma’lumotlar berildi, ularning ijodidan eng sara durdonalar va ularning hayot saboqlari tinglandi.

10-dekabr - O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va uning tarkibiy bo‘linmalari ishchi-xodimlari va yoshlari ishtirokida "Vatanim madhiyasi - faxrim, g‘ururim!" shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlari, davra suhbatlari o‘tkazildi.

Vazirlik va uning tasarrufidagi korxona va tashkilotlar rahbarlari bilan sohani rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, davlatimiz rahbarining geologiya sohasini rivojlantirishga berayotgan alohida e’tibori, geologiya sohasi respublika iqtisodiyotini rivojlanishida muhim omil ekanligi, sohada o‘zbek tilini keng targ‘ib qilish haqida intervyular tashkil etib borish yo‘lga qo‘yilgan. Barcha intervyular, maqolalar, TV da chiqishlar vazirlik rasmiy web-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida davlat tilida beriladi.

Shuningdek, sohaning etuk mutahassislari tomonidan kon-geologiya sohasidagi geografik obyektlar - konlarning nomlarini kon joylashgan hudud nomi, tarixiy joylar hamda hom-ashyoning tarkibi va turiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunlari talablariga asosan maqbullashtirish ishlari olib borildi. Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazaridan kon nomlari ro‘yxati davlat ekspertizasidan o‘tkazish uchun Respublika komissiyasiga topshirildi. Respublika komissiyasi o‘tkazgan ish yakunlariga ko‘ra hamda davlat ekspertizasi natijalarini hisobga olgan holda tegishli xulosa asosida O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida” qonuni ijrosini ta’minlash maqsadida Kon-geologiya vazirligi tomonidan **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasidagi geografik obyektlarning nomlarini davlat tili qoida va me’yorlariga muvofiqlashtirish to‘g‘risidagi qarori** loyihasi ishlab chiqildi va joriy yil 15-noyabrda Vazirlar Mahkamasining 766-sonli Qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur qaror bilan Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasidagi **764 ta** geografik obyektlarning nomlarini (**110 ta** rudali, **464 ta** noruda va **129 ta** uglevodorod koni) davlat tili qoida va me’yorlariga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiqlashtirildi. Bundan buyon normativ-huquqiy hujjatlarda hamda ish hujjatlari va yozishmalarda mazkur tasdiqlangan nomlardan foydalaniladi.

Hozirda Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasidagi foydali qazilmalar konlari nomlari davlat tili qoida va me‘yorlariga muvofiqlashtirilishi munosabati bilan tegishli hujjatlar hamda ma‘lumotlar bazasiga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmoqda. Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasidagi foydali qazilmalar konlari nomlari davlat tili qoida va me‘yorlariga muvofiqlashtirilishini keng targ‘ib qilish maqsadida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida brifing o‘tkazildi. Brifingda (https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/48563) Vazirning ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Z.Axmedova bu borada qilinayotgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot berdi. <https://t.me/uzdavgeolcom/18248>

Ayni damda sohaning malakali matahassislari mavjud konlarning nomlarini O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunlari talablariga asosan maqbullashtirish ishlarini davom ettirmoqdalar. Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasidagi ayrim geografik obyektlarning nomlarini davlat tili qoida va me‘yorlariga muvofiqlashtirish hamda yangi nom berish to‘g‘risidagi qarori loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur qaror bilan Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasidagi **367 ta** geografik obyektlarning nomlarini (**39 ta** rudali, **105 ta** noruda va **126 ta** uglevodorod koni) davlat tili qoida va me‘yorlariga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiqlashtirish hamda **97 ta** geografik obyektlarning nomlariga (**4 ta** rudali **63 ta** noruda va **30 ta** uglevodorod koni) davlat tili qoida va me‘yorlariga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga asosan yangi nom berish ko‘zda tutilgan. Loyiha qabul qilinishi bilan Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasidagi geografik obyektlarning nomlarini O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunlari talablariga asosan maqbullashtirishga erishiladi.

Bu boradagi ishlar nafaqat geologiya sohasida o‘zbek tilini keng targ‘ib qilish, balki o‘zbek tilini ixtisoslashgan yo‘nalishda rivojlantirish, qonunchilik me‘yorlarini hayotga tatbiq etish va o‘zbek tilining jamoat hayotida to‘liq qo‘llanilishi uchun shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

**Vazirning ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar
samaradorligini oshirish, davlat tili
to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya
etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha
maslahatchisi**

Z. Axmedova